XALQ DEPUTATLARI MIRZAOBOD TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 30 - avgust VI-54-178-9-125-K/22 Mirzaobod tuman hokimligi

Mirzaobod tumani hududidagi qabristonlar va aholi punktlarini nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining talablaridan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 22-iyuldagi “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Mirzaobod tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tuman hokimligining 2022-yil 29-iyuldagi 4/04-73-sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 22-iyuldagi “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasi ijro va ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hududidagi nomlangan qabristonlar va aholi punktlarining nomlari **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi huzuridagi geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha komissiya a’zolari, tuman hokimi o‘rinbosari R.Anorboyev, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (G‘.Usmonov), tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi (B.Sariboyev):

- bir hafta muddatda nomlar o‘zgargan geografik obyektning nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish;

- belgilangan tartibda zamonaviy ko‘rinishda, lotin yozuvida, peshlavhalarga yozib o‘rnatish ishlarini tashkil etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni belgilasin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Xolqo‘ziyev), tuman ichki ishlar bo‘limi (B.Shodiyev), tuman davlat soliq inspeksiyasi (D.Jumayev), tuman statistika bo‘limi (E.Nishonov), tuman moliya bo‘limi (I.Sattorov), tuman kadastr agentligi (D.Pirnozov) va tegishli mutasaddi tashkilot rahbarlariga:

- mazkur qaror asosida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarni e’tiborga olgan holda tegishli idoraviy hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish;

- tuman hududida joylashgan mahalla fuqarolar yig‘ini hududiy bo‘linishi bo‘yicha joylashtirilgan peshlavhalar yozuvlariga o‘zgartirishlar kiritish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur qaror bilan bog‘liq hujjatlar geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasiga taqdim etilsin.

6. Tuman hokimligi Axborot xizmati (I.Sultonova)ga:

- Mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari, komissiya raisining o‘rinbosari R.Anarbayev va Xalq deputatlari tuman Kengashining ijtimoiy-madaniy rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi (G.Holmuradova) zimmalariga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **J.Yariyev**

Xalq deputatlari Mirzaobod tuman
Kengashining
2022 yil 30 avgustdagi
VI-54-178-9-125-K/22-son qaroriga
1-ilova

Mirzaobod tumani hududidagi nomlangan qabristonlar va aholi punktlarining nomlari

№	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Aholi punkti	Navro‘z MFY	Nomsiz	Navro‘z	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	Aholi punkti	Do‘ngariq MFY	Nomsiz	Bo‘ston	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3.	Aholi punkti	Dehqonobod MFY	Nayman	Nayman	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4.	Aholi punkti	Yangi hayot MFY	Yangihayot	Yangihayot	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5.	Aholi punkti	Yangi O‘zbekiston MFY	Nomsiz	Yangi O‘zbekiston	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6.	Qabriston	Nurafshon MFY	Nomsiz	Parchayuz	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7.	Qabriston	Nurafshon MFY	Nomsiz	Nayman	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8.	Qabriston	Mirzacho‘l MFY	Nomsiz	Yangiovul	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9.	Qabriston	Bahor SIU	Nomsiz	Musofirobod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
10.	Qabriston	Tinchlik MFY	Nomsiz	Tinchlik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
11.	Qabriston	Tinchlik MFY	Nomsiz	Sirg‘ali	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
12.	Qabriston	Bahoriston MFY	Nomsiz	Bahoriston	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
13.	Qabriston	Yo‘ldoshobod MFY	Nomsiz	Yo‘ldoshobod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
14.	Qabriston	Navbahor MFY	Nomsiz	Navbahor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
15.	Qabriston	Haqiqat MFY	Nomsiz	Barlos	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
16.	Qabriston	T.Ahmedov MFY	Nomsiz	Kampirmozor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
17.	Qabriston	Navro‘z MFY	Nomsiz	Navro‘z	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
18.	Qabriston	Oydin MFY	Nomsiz	Oydin	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
19.	Qabriston	Dehqonobod MFY	Nomsiz	Dehqonobod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq